



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 194 sahifa,
6-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Fizika ta'limida integratsiyalashgan yondashuv: mazmuni va ahamiyati.....	10
<i>Doniyorova Iroda Baxtiyor qizi</i>	
Zamonaviy boshlang'ich ta'lim: milliy dastur, kompetensiya va xorijiy tajriba integratsiyasi.....	14
<i>Omonova Nilufar Parda qizi</i>	
The Role of Environmental Project-Based Learning in Developing EFL Learners' Productive Skills.....	19
<i>Xujanova Shaxina Abdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik aspektlari	24
<i>Eshpo'latova Elnora Yo'ldoshovna</i>	
Talabalarda stressga barqarorlikning nazariy va amaliy tahlili.....	29
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Maxmudova Shahzoda Maksudovna</i>	
Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda didaktik ta'minotning ahamiyati.....	32
<i>Ramozonova Bahroy Sadriddinovna</i>	
Oliy ta'limda raqamli pedagogikaning institutsionallashuvi: boshqaruv, siyosat va raqamli transformatsiya strategiyalari.....	36
<i>Nuraliyeva Dilshoda Yo'ichiboy qizi</i>	
Aholini jismoniy sog'lomlashtirishda sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	41
<i>V. Sh. Raximov</i>	
O'spirinlik davrida motiv va motivatsion sohalarning kasb tanlashdagi o'rni	46
<i>Rayimqulova S., Pulatova R., Do'smatova S., Matyakubova Shohista Odamboy qizi</i>	
Tarbiyachi shaxsining shakllanishida psixologik determinantlarning roli	51
<i>Vasila Yusupova</i>	
Kasbiy ta'lim o'quvchilarini ijodiy qobiliyatini oshirishda xorijiy tajribalardan foydalanish	55
<i>B. X. Sharopov</i>	
Raqamli axborot makonida gumanistik g'oyalarni integratsiyalashning nazariy konsepsiyasi	59
<i>Isanov Najotbek Ilmamat o'g'li</i>	
Fanlararo integratsiya asosida o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish imkoniyatlari.....	63
<i>J. M. Fayzullayev, Ortiqova E'zoza Olimjon qizi</i>	
Millatlarning o'ziga xos dunyoqarashining psixologik xususiyatlari	67
<i>Murxashev Axmadxon Olimjon o'g'li</i>	
Xalqaro ta'lim dasturlari asosida kasbiy ta'lim muassasalarida metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.....	70
<i>S. A. Qarshiboyev</i>	
Ijtimoiy media kontentlari orqali talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning nazariy asoslari.....	74
<i>Suyunov Rustam Sadriddinovich</i>	
Ko'p tilli muhitda ingliz tilini o'rganishning lingvistik xususiyatlari	78
<i>Teshaboyeva Mohichexra Sohibjon qizi</i>	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida bo'lajak pedagoglarning mediakompetentligini rivojlantirish zarurati.....	81
<i>Umarov Azizbek Vaxobovich</i>	
O'quvchilarda badiiy matn leksikasini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar: muammo va yechim.....	85
<i>Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini ma'naviy tarbiyalashda Ahmad al-Farg'oniy asarlarini kompyuter imitatsion modellari asosida o'qitish metodikasi.....	89
<i>S. S. Qulmurodova</i>	
Enhancement of Periodontal Disease Management Strategies in Individuals With Chronic Hepatitis C Following Attainment of a Sustained Virological Response.....	92
<i>Makhmudova Ugiloy Bakhtiyorovna</i>	



Epithelial-Mesenchymal Transition's Possible Role in the Pathogenesis of Periodontitis (Literature Review).....	95
Burkhonova Zараfruz Kobilovna	
Gamifikatsiya asosida bo'lajak oligofrenopedagoglarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari mexanizmini tatbiq etish	102
Bozorboyev Javlon	
Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish omillari.....	106
Jamilova Dilsuza To'lqin qizi	
Elektir va magnit maydonida yorug'likning ikkilamchi sinishi.....	110
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Alimardonov Husan Yorqin o'g'li, Ismatullayev Sayfiddin Panji o'g'li	
Lazer texnologiyalarining zamonaviy qo'llanilishi	114
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Muminova Sevinch Kamoliddin qizi, Begnayeve Dilbar Bobonazar qizi	
Fotometrik kattaliklar	117
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Mamatqulova Zebo Komiljon qizi, Xolmaxmatova Sevara Sirojiddin qizi	
Qutublangan yorug'lik manbalari	121
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Turdimurodova Kumushbibi, Normuminova Madina	
Tabiatdagi optik hodisalar	125
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Qudratova Sevinch Otabek qizi, Ulasheva Ruxshona Rustam qizi	
Rus tilini o'qitishda kompetensiyaga asoslangan innovatsion yondashuvlardan foydalanish	129
Erkinova Nozima Utkir qizi	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasini tadqiq etishning ilmiy-metodologik tahlili	133
Ikmatullayev G'. Z.	
Raqamli ta'lim platformalarida matematika o'qitishda sun'iy intellekt yordamida baholash tizimini takomillashtirish	136
Mirzayeva Shahlo Abduraxmanovna, Akbarov Ulug'bek, Abdivaliyeva Umida	
Linguistic and Pedagogical Foundations of Teaching English as a Foreign Language in The Uzbek Context.....	140
Shokirova Mushtariy	
Sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi transformatsion roli	144
Uzoqboyev Xojiakbar Qobuljon o'g'li	
Enhancing Collaborative Learning and Peer Feedback in EFL Classrooms Through Padlet: a Digital Approach to Group Work and Assessment.....	148
Veronica Khatamova	
Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning rasmlar asosida aqliy faoliyatini rivojlantirishning vizual-didaktik texnologiyalarini takomillashtirish.....	152
Meliqo'ziyev Abduraxmonjon Qahramonjon o'g'li	
Emotsional intellekt – hr menejerlarning qaror qabul qilish kompetensiyasining determinanti sifatida	157
Abdukarimov Muhammadjon Muratovich	
O'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning tizimli-pedagogik modeli: nazariya, metodologiya va amaliyot	162
Islamova Fotima Shamsiddinovna	
Barkamol yosh avlod fazilatlarini shakllantirishda milliy innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni.....	170
Olimova Dono Shakirovna, Baxtiyorova Shahnoza Mansurbekovna	
Development of Prevention of Professional-Pedagogical Deformation on the Basis of Health-Saving Technologies in Higher Educational Institutions.....	174
Saidova Parvina Mirzo kizi	
O'zbek xalq pedagogikasi mazmuni asosida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ilmiy nazariy asoslari	178
Rahmonqulova Guliza Faxriddin qizi	



Bolalarning maktabgacha yosh davrida emotsional rivojlanishiga oid nazariy qarashlar tavsifi.....	182
Abduraxmonova Gulmira Arapjon qizi, Yuldasheva Umida Maxmudovna	
Alohida ehtiyojli bolalar uy ta'limini tashkil etishning korreksion pedagogik tizimining tarkibiy komponentlari.....	186
Jo'raxo'jayev Muhammadazizxo'ja Xalilxo'ja o'g'li	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia vositalarining ahamiyati.....	190
Umida Marasulova	



ALOHIDA EHTIYOJLI BOLALAR UY TA'LIMINI TASHKIL ETISHNING KORREKSION PEDAGOGIK TIZIMINING TARKIBIY KOMPONENTLARI

Jo'raxo'jayev Muhammadazizxo'ja Xalilxo'ja o'g'li

Andijon Davlat Pedagogika Instituti

“Maxsus pedagogika “ kafedra mudiri PhD dotsent

<https://orcid.org/0009-0002-8009-0482>

Annotatsiya: Ushbu maqolada korreksion pedagogik tizimning konseptual (maqsad-vazifalar), mazmuniy (o'quv-korreksion kontent), protsessual (metod, shakl, texnologiyalar), subyektiv (ishtirokchilar va ularning rollari), resurs (moddiy-texnik, axborot, kadrlar), diagnostik-monitoring hamda natijaviy komponentlari tahlil qilinadi. Shuningdek, tizimning ilmiy-metodik tayanch tamoyillari (shaxsga yo'naltirilganlik, differensiallash va individualizatsiya, inklyuzivlik va integratsiya, uzluksizlik, tizimlilik, reabilitatsion yo'naltirilganlik, xavfsiz psixologik muhit) hamda ularni uy sharoitida ta'limga tatbiq etish mexanizmlari (IPR/IEP, funktsional diagnostika, rejalashtirish, korreksion mashg'ulotlar dizayni, oilaviy kouching, masofaviy qo'llab-quvvatlash, interdisiplinar hamkorlik, portfel va kriterial baholash) batafsil yoritiladi.

Kalit so'zlar: korreksion pedagogik tizim, komponentlar, tamoyillar, metodik mexanizm, uy ta'limi, individual ta'lim dasturi, inklyuziv ta'lim, diagnostika, korreksion mashg'ulotlar.

Abstract: This article analyzes the conceptual (goals and objectives), content-related (educational and corrective content), procedural (methods, forms, and technologies), subjective (participants and their roles), resource-based (material-technical, informational, and human resources), diagnostic-monitoring, and outcome-oriented components of the correctional pedagogical system. The study also examines the scientific and methodological principles of the system, including learner-centeredness, differentiation and individualization, inclusiveness and integration, continuity, systematicity, rehabilitation orientation, and a safe psychological environment, as well as the mechanisms for implementing them in home-based education settings. These mechanisms include IPR/IEP, functional diagnostics, planning, corrective lesson design, family coaching, дистан learning support, interdisciplinary collaboration, portfolio assessment, and criterion-based evaluation.

Key words: correctional pedagogical system, components, principles, methodological mechanism, home education, individualized education program, inclusive education, diagnostics, corrective activities.

Аннотация: В данной статье анализируются концептуальные (цели и задачи), содержательные (учебно-коррекционный контент), процессуальные (методы, формы, технологии), субъектные (участники и их роли), ресурсные (материально-технические, информационные, кадровые), диагностико-мониторинговые и результативные компоненты коррекционно-педагогической системы. Также подробно раскрываются научно-методические принципы системы (личностно-ориентированный подход, дифференциация и индивидуализация, инклюзивность и интеграция, непрерывность, системность, реабилитационная направленность, безопасная психологическая среда) и механизмы их реализации в условиях домашнего обучения (IPR/IEP, функциональная диагностика, планирование, дизайн коррекционных занятий, семейный коучинг, дистанционная поддержка, междисциплинарное сотрудничество, портфолио и критериальное оценивание).

Ключевые слова: коррекционно-педагогическая система, компоненты, принципы, методический механизм, домашнее обучение, индивидуальная образовательная программа, инклюзивное образование, диагностика, коррекционные занятия.

KIRISH

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim tizimining samaradorligi o'rganilgan metodlarning turli jihatlarini ko'rsatmoqda.

Bunday o'quvchilarga individual yondashuv juda muhim ahamiyatga ega, chunki har bir bola o'ziga xos xususiyatlarga ega. Korreksion pedagogik tizimning tarkibiy komponentari, tamoyillari va o'qitish metodlari ta'limning samaradorligini oshirishda samarali bo'ladi, lekin uni barcha o'quvchilarga moslashtirish o'qituvchilarning tajribasini va malakasini talab qiladi.



O'qituvchilar, o'z navbatida, individual ehtiyojlarga mos keladigan materiallar va metodlarni tanlashda ehtiyotkorlikni talab qiladi. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun, o'qituvchilar keng bilimga ega bo'lishi kerak va pedagogik yondashuvlarni bir-biriga moslashtira olishlari lozim.

Alohida ehtiyojli bolalar uchun uy ta'limini tashkil etish masalasi bugungi kunda inkluziv ta'lim, maxsus pedagogika va korreksion-pedagogik yondashuvlarning kesishgan nuqtasida turgan kompleks ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi. Uy sharoitida ta'lim ko'pincha sog'lig'i, harakatlanish imkoniyati, uzoq muddatli reabilitatsiya jarayonlari yoki psixofiziologik rivojlanishidagi cheklovlar sababli umumiy ta'lim muassasasiga muntazam qatnasha olmaydigan bolalar uchun muqobil yoki vaqtinchalik ta'lim shakli sifatida qo'llanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Alohida ehtiyojli bolalar uy ta'limini tashkil etishning korreksion pedagogik tizimining tarkibiy komponentlari, tamoyillari va metodik mexanizmlarini bolalarning ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish mexanizmlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi markazlari va oliy ta'lim muassasalarida olib borilmoqda.

Amerikalik falsafa doktori, Jeyn Grenfell Daffining "Alohida ehtiyojli bolalarni uyda o'qitish: tavsifiy tadqiqot" nomli maqolasining dastlabki qismidanoq hatto o'qishda qiynaladigan o'quvchilar uyda ta'lim olganda davlat maktablaridagi tengdoshlariga qaraganda yuqoriroq akademik natijalarga erishishini ta'kidlashgan"-deb uy ta'limining ommaviy maktabdagi ta'limdan ko'ra samarali ekanligiga ishora qilib o'tgan. Mullif o'z tadqiqotining madsadini alohida ehtiyojli bo'lgan, uyda ta'lim olayotgan o'quvchilarni, ularning oilalarini va ta'lim muhitini tavsiflovchi korreksion pedagogik omillarni yoritishdir deb yozib o'tadi^[1].

Romanowski tomonidan olib borilgan tadqiqot uyda o'qiydigan o'quvchilarning standartlashtirilgan testlarda yuqori natijalarini ta'kidlaydi, bu esa ushbu ta'lim yondashuvi orqali rivojlangan akademik mahoratni ko'rsatadi. Uyda o'qitish individual o'quvchilarning ehtiyojlari va afzalliklarini qondirish uchun moslashuvchan muhitni ta'minlaydi. Bundan tashqari, uyda ta'lim olayotgan o'quvchilar shaxsiy e'tibordan foydalanadilar, bu esa individual o'qitish va fanni chuqurroq tushunish imkonini beradi^[2:79-83b].

Van Schalkwyk va Bouwer (2011) uyda o'qiydigan talabalar moslashtirilgan o'quv dasturiga amal qilishlari mumkinligini ta'kidladilar, bu ularga fanlarni chuqur o'rganish yoki kuchli sohalarida o'rganishni tezlashtirish imkonini beradi. Pedagogik tizimning komponentlari va dasturlari shaxsning qiziqishlariga mos keladi va yanada qiziqarli hamda motivatsiyali ta'lim tajribasini rivojlantiradi. Bu faollik o'quvchilarning o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ular materialni chuqurroq o'zlashtiradilar^[3:179-190-b].

A.Fitriana uyda ta'lim olishni bolalar salohiyatini rivojlantirishda samarali muqobil ta'lim usuli deb hisoblash mumkin. Uyda ta'lim olishning bevosita natijalari quyidagilardan iborat: akademik mukammallik, jamiyat quruvchisi va yaxshi xulq-atvor. Uyda ta'lim olish natijasida bolalar o'z ta'limlarini yuqori bosqichlarda davom ettira oladilar, mustaqil o'rganish ko'nikmalarini egallaydilar, boshqalardan o'rganadilar va ijtimoiy faoliyatlarda faol ishtirok etadilar^[4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Uy ta'limi tushunchasi "oddiy o'qitishning joyi" bilan cheklanmay, balki o'quvchi shaxsining o'ziga xos ehtiyojlari asosida moslashtirilgan (adaptiv) o'quv rejaları, individual ta'lim yo'nalishi, korreksion-rivojlantiruvchi xizmatlar, oilaviy hamkorlik, masofaviy pedagogik texnologiyalar va tibbiy-psixologik qo'llab-quvvatlash integratsiyasini anglatadi. Shu sababli uy ta'limini samarali yo'lga qo'yish uchun uni "korreksion pedagogik tizim" sifatida konseptualashtirish, ya'ni maqsad, vazifa, tamoyil, mazmun, metod, tashkiliy shakl, monitoring va natijalar o'rtasidagi tizimli bog'liqlikni ilmiy asosda belgilash zarur.

Korreksion pedagogik tizim doirasida uy ta'limi faqat akademik bilim berish emas, balki bolaning: kommunikativ, ijtimoiy, emotsional-irodaviy, sensor-motor va o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish kompetensiyalarini ham rivojlantirishni ko'zlaydi.

Ayniqsa, alohida ehtiyojli bolalarda ta'lim natijalarini baholash faqat predmet ko'rsatkichlari bilan o'lchanmasligi, balki:

- funksional mustaqillik,
- hayotiy kompetensiyalar,
- moslashuvchan xulq,
- oila va jamiyat bilan muloqot kabi ko'rsatkichlar bilan ham integratsiyalashgan bo'lishi lozim.

Bunday yondashuv xalqaro maxsus ta'lim amaliyotida keng qo'llaniladigan "multi-tiered support", "individualized education plan", "functional assessment" kabi konsepsiyalar bilan hamohangdir.

Shu bilan birga, uy ta'limining o'ziga xos xavflari ham mavjud: ijtimoiy izolyatsiya, ta'lim resurslari cheklanganligi, ota-onaning pedagogik kompetensiyasi yetarli emasligi, turli mutaxassislar o'rtasida koordinatsiya sustligi, baholashning subyektivlashuvi va boshqalar. Demak, uy ta'limini korreksion pedagogik tizim sifatida to'g'ri loyihalash, joriy etish va monitoring qilish metodik mexanizmlarini aniqlash ilmiy dolzarblik kasb etadi.

Uy ta'limini korreksion pedagogik tizim sifatida ko'rish, avvalo, "tizim" tushunchasini pedagogik jarayonga tadbiq etishni talab qiladi.

Tizim - o'zaro bog'langan elementlar majmui bo'lib, ular umumiy maqsad sari yo'naltiriladi va muhit bilan almashinuvda ishlaydi.

Uy ta'limida "muhit" sifatida oila, uy sharoiti, tibbiy tavsiyalar, mahalla/ijtimoiy infratuzilma, masofaviy platformalar, resurs markazlari va (zarurat bo'lsa) umumta'lim muassasasi bilan aloqalar maydoni namoyon bo'ladi.

Korreksion pedagogik tizim esa pedagogik ta'sirni bolaning rivojlanishidagi nuqsonlarni yumshatish, kompensatsiya qilish, oldini olish va ijtimoiy moslashuvni kuchaytirish maqsadida tashkil etadi. Demak, uy ta'limi doirasida korreksion yo'nalish ta'lim mazmuni va metodikasiga "qo'shimcha" sifatida emas, balki markaziy integrator sifatida kiradi.

Alohida ehtiyojli bolalarning turli guruhleri (nutq buzilishlari, eshitish yoki ko'rish cheklovi, tayanch-harakat apparati muammolari, autizm spektri, intellektual rivojlanish cheklovlari, diqqat yetishmovchiligi va giperfaollik, emotsional-xulqiy qiyinchiliklar va boshqalar) bir xil korreksion vositalarni talab qilmaydi. Shu sababli uy ta'limining korreksion pedagogik tizimi "universal model" sifatida emas, balki moslashuvchan konstrukt sifatida tushunilishi lozim: unda umumiy karkas (tamoyillar, bosqichlar, baholash mezonlari, hamkorlik mexanizmlari) saqlangan holda, bolaga xos individual konfiguratsiya yaratiladi. Bu yondashuv individual ta'lim dasturini (IEP) ishlab chiqish amaliyotida ham asosiy metodologik yo'l sifatida qaraladi.

Uy ta'limi tizimi ayniqsa "ekologik" yondashuvni talab qiladi: bolaning rivojlanishi nafaqat darsda, balki uy ichidagi kundalik tartib, o'yin, maishiy faoliyat, muloqot va hissiy muhit orqali ham shakllanadi. Shu bois korreksion pedagog uy sharoitida "sinfxona"ni emas, balki bolaning hayotiy faoliyatini pedagogik resursga aylantirishi kerak: masalan, ovqatlanish, kiyinish, yig'ishtirish, xarid ro'yxati tuzish, vaqtni rejalashtirish kabi vaziyatlarda funksional matematika, nutq, ijtimoiy ko'nikmalar, ijro funksiyalari (executive functions)ni rivojlantirish mumkin. Bunda korreksion ta'sirning kuchi "ko'p martalik tabiiy takrorlanish" va "vaziyatga mos kontekst" orqali ortadi.

Uy ta'limi korreksion pedagogik tizimining birinchi va bosh komponenti - maqsadli-kommunikativ komponentdir. Uning vazifasi ta'lim jarayonining "nima uchun"ini aniq belgilash: bola qaysi kompetensiyalarni egallashi, qaysi rivojlanish to'siqlari yumshatilishi, qaysi moslashuv ko'rsatkichlari yaxshilanishi kerak.

Alohida ehtiyojli bolalar uchun maqsadlar odatda uch qatlamda ifodalanadi:

- akademik maqsadlar (savodxonlik, matematika, tabiiy fanlar bo'yicha minimal zarur natijalar).
- korreksion-rivojlantiruvchi maqsadlar (nutq, motorika, idrok, diqqat, xotira, emotsional o'zini boshqarish).
- funksional-hayotiy maqsadlar (mustaqil hayot ko'nikmalari, ijtimoiy muloqot, xavfsizlik, o'zini parvarish).

Ushbu qatlamlar o'zaro raqobatlashmasligi, aksincha, bir-birini qo'llab-quvvatlashi lozim: masalan, o'qish (reading) ko'nikmasi ijtimoiy moslashuvni ham kuchaytiradi, nutq terapiyasi esa akademik o'zlashtirishni yengillashtiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maqsadlar SMART mezonlari (aniq, o'lchanuvchi, erishiladigan, dolzarb, muddatli) asosida qo'yilgani ma'qul. IEP tuzishda maqsadlarni aniq indikatorlarga aylantirish, keyingi monitoringni obyektivlashtiradi Uy ta'limi sharoitida bu ayniqsa muhim, chunki baholash ko'pincha o'qituvchi va ota-onaning subyektiv kuzatuvlariga tayanib qolishi mumkin. Uy ta'limining korreksion tizimi ko'p subyektli tizimdir. Unda o'quvchi markazda turadi, biroq u bilan birga ota-ona (yoki vasiy), uyga kelib dars o'tuvchi o'qituvchi, maxsus pedagog (defektolog), logoped, psixolog, zaruratga ko'ra rehabilitolog yoki ergoterapevt, shuningdek tibbiy xodimlar ham ishtirok etishi mumkin. Har bir subyektning roli aniq belgilab qo'yilmasa, takrorlanish, bo'shliq (gap) yoki qarama-qarshi tavsiyalar yuzaga keladi. Shu bois tizimda "koordinatsion markaz" funksiyasi bo'lishi zarur: amaliyotda bu ko'pincha maxsus pedagog yoki sinf rahbari/kurator bo'lib, IEP hujjati va haftalik reja orqali hamkorlikni boshqaradi.

Ota-onaning roli uy ta'limida odatdagidan kengroq: u nafaqat tarbiyachi, balki kundalik mashqlarni bajarishda fasilitator, motivator va ba'zan ko-terapevt vazifasini ham bajaradi. Shuning uchun metodik mexanizmlardan biri sifatida "ota-onani pedagogik kouching" (parent coaching)ni tizimga kiritish muhim: ota-ona korreksion mashqlarni to'g'ri bajarish, xulqni boshqarish strategiyalari, sensor muhitni tartibga solish, kun tartibini strukturalash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni olishi kerak. Bunda ota-onaga ortiqcha yuk yuklamasdan, minimal samarali protokollar tanlanishi ham tamoyilga aylanishi lozim. Uy ta'limi korreksion tizimi diagnostikasiz samarali ishlaydi.



Diagnostik-analitik komponent quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- (1) boshlang'ich baholash,
- (2) dinamik kuzatuv,
- (3) oraliq va yakuniy baholash.

Uy sharoitida diagnostika imkon qadar "funktional" bo'lishi, ya'ni real vaziyatlarda bolaning nima qila olishini ko'rsatishi kerak. Masalan, "matn o'qiydi" degan umumiy xulosa o'rniga "3-4 jumlati matndan 5 ta asosiy so'zni ajratadi, o'qish tezligi daqiqasiga X so'z" kabi ko'rsatkichlar olinadi.

Uy ta'limi muvaffaqiyati ota-onaning pedagogik amaliyotiga bog'liq bo'lgani uchun "kouching" mexanizmi muhim: o'qituvchi ota-onaga

- (1) mashqni ko'rsatadi,
- (2) ota-ona bajarib ko'radi,
- (3) o'qituvchi qayta aloqa beradi,
- (4) uyga topshiriq va qisqa yo'riqnoma qoldiradi,
- (5) keyingi uchrashuvda natija muhokama qilinadi.

Bu sikl ota-onani "tasodifiy yordamchi"dan "tizimli hamkor"ga aylantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Alohida ehtiyojli bolalar uy ta'limini tashkil etishning korreksion pedagogik tizimi ko'p komponentli, moslashtirilgan va hamkorlikka tayangan murakkab modeldir. Uning samaradorligi maqsadlarning aniq qo'yilishi, diagnostik asoslangan individual reja (IEP)ning mavjudligi, mazmunning akademik va korreksion yo'nalishlarda integratsiyasi, metodlarning dalillarga tayanishi, uy muhitining moslashtirilishi, ota-onaga metodik kouching berilishi hamda monitoringning kriterial va portfel yondashuvlari bilan yo'lga qo'yilishiga bog'liq.

Tizimning tamoyillari - shaxsga yo'naltirilganlik, individualizatsiya, uzluksizlik, reabilitatsion funktsionallik, hamkorlik va ilmiylik - uy ta'limi sharoitida ta'lim sifatini boshqarishning metodologik tayanchi bo'lib xizmat qiladi.

Metodik mexanizmlar esa ushbu tamoyillarni real pedagogik amaliyotga aylantirib, uy ta'limini epizodik yordam emas, balki rejalashtirilgan, monitoring qilinadigan va natijaga yo'naltirilgan korreksion pedagogik tizim sifatida barqaror ishlashini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jane Grenfell Duffey, Ph.D. Norfolk Christian Schools. Home Schooling Children With Special Needs: A Descriptive Study. Apr 10, 2002. <https://nheri.org/home-school-researcher-home-schooling-children-with-special-needs-a-descriptive-study/#>
2. Romanowski, M. H. (2001). Common Arguments about the Strengths and Limitations of Home Schooling. *The Clearing House: A Journal of Educational Strategies, Issues and Ideas*, 75(2), 79-83. <https://doi.org/10.1080/00098650109599241>
3. Van Schalkwyk, L., & Bouwer, C. (2011). Homeschooling: Heeding the voices of learners. *Education as Change*, 15(2), 179-190. <https://doi.org/10.1080/16823206.2011.619147>
4. Fitriana, A. (2016). Effectiveness of the Implementation of Homeschooling Education as Alternative Education in Developing the Potential of Children in Homeschooling Kak Seto, South Jakarta. Vol 1, No 1, pp. 50-59. February 2016. ISSN 2541-1462.
5. Dzhorakhodzhaev Muhammadazizkhoja Khalilkhoja "Problems and solutions of home individual educators". International Congress on Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences/Bilbao, Spain. March 27 th 2022. 315-318 b. conferencezone.org
6. Permoser, J. M., & Stoeckl, K. (2021). Reframing human rights: the global network of moral conservative homeschooling activists. *Global Networks*, 21(4), 681-702. <https://doi.org/10.1111/glob.12299>
7. Qodirova F.U. Imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish, tarbiyalash, ijtimoiy hayotga tayyorlash. Monografiya.-Toshkent. "Zamin", 2019.-272 bet.
8. The Effectiveness of Homeschooling Students with Special Needs in Cooper, B. *Homeschooling in Full Review* Ensign, J (2000). Defying the Stereotypes of Special Education: Home school students. *Peabody Journal of Education*, 75 (1-2), pp 147-158-b.
9. Trevaskis, R. (2005). Home Education - The Curriculum of Life. Unpublished MEd, Monash, Melbourne.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.